



YOZUV VA YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISH: NAZARIYA VA
RIVOJLANTIRUVCHI MASHQALR TIZIMI

DEVELOPING WRITING AND WRITTEN SPEECH: THEORY AND
A SYSTEM OF DEVELOPMENTAL EXERCISES

ФОРМИРОВАНИЕ ПИСЬМА И ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ: ТЕОРИЯ
И СИСТЕМА РАЗВИВАЮЩИХ УПРАЖНЕНИЙ

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi¹

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqola ingliz tilida yozuv va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalalariga qaratilgan bo'lib, unda yozuv texnikasi va uni rivojlantiruvchi mashq va vazifalar ketma-ketligi, yozma axborotni yaratishda diqqat qaratilishi kerak bo'lgan jihatlar va turli bosqichlarda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan yozma matnlar haqida ma'lumot beriladi.*

KALIT SO'ZLAR: *yozuv, yozma nutq, texnika, imlo, husnixat, kaligrafiya, bosqich, tamoyil, grafika, harf, tovush.*

ABSTRACT: *This article is devoted to the issues of developing and improving writing and written speech skills in English. It provides information about the sequence of exercises and tasks aimed at developing writing techniques, the aspects that should be considered when producing written information, and the types of written texts to be mastered at various stages.*

KEYWORDS: *writing, written speech, technique, spelling, calligraphy, stage, principle, graphics, letter, sound.*

АННОТАЦИЯ: *Данная статья посвящена вопросам формирования и развития навыков письма и письменной речи на английском языке. В ней представлена информация о последовательности упражнений и заданий, направленных на развитие техники письма, аспектах, на которые следует*

¹ O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Sirdaryo akademik litseyi o'qituvchisi, Guliston Davlat Universiteti tuyanch doktoranti.



обращать внимание при создании письменной информации, а также о видах письменных текстов, которые необходимо усваивать на различных этапах обучения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: письмо, письменная речь, техника, орфография, каллиграфия, этап, принцип, графика, буква, звук.

KIRISH

“Yozuv” va “**yozma nutq**” tushunchalari metodistlar va psixologlar tomonidan odatda turlicha talqin etiladi. Xususan, *yozuv*- ta’lim jarayonida odatda texnologik yoki jarayonli jihat sanalsa, *yozma nutq*- fikrni yozma tarzda ifodalashga qaratilgan murakkab aqliy – ijodiy jarayondir. Yozuv murakkab nutq faoliyat turi sanalib, uni o’rganishda quyidagi jihatlar nazarda tutiladi:

1. Yozuv texnikasi ustida ishslash, ya’ni **grafika, orfografiya, kalligrafiya** va **punktuatsiya** ko’nikmalarini shakllantirish;

2. O’zlashtirilayotgan tilning grafik tizimi yordamida ma’no anglatadigan axborotni tayyorlash malakalarini rivojlantirish(ya’ni yozma nutq). Raimesga ko’ra fikrni ravon va samarali yetkazishga mo’ljallangan yozuvni yaratishda quyidagi jihatlarga e’tibor berish zarur:

- Maqsad: yozishdan ko’zlangan asosiy sabab;
- O’quvchilar: kitobxonlar va ularning turli xussusiyatlari(qiziqishlari, yoshi, jinsi, re’jalari, kelajakdagi orzulari, kasblari va hokozo);
- Tarkib: dolzarblik, aniqlik, o’ziga xoslik, mantiqiylilik va boshqalar;
- Jarayon: G’oyalarni to’plash, saralash, qoralama yaratish, qayta ko’rib chiqish va boshqalar;
- Yozuv texnikasi: husnixat, imlo, kalligrafiya, tinish belgilari;
- Tashkilyi qism: paragraflar, rivojlantirish, uyg’unlik, moslik;
- So’z tanlash: idioma, lug’at, ohang;
- Sintaksis: jumlalar tuzilish, gap chegarasi, stilistik tanlovlар va boshqalar;
- Grammatika: otlar, olmoshlar to’gri tanlanishi, zamonlar moslashuvi va boshqalar.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yozuv va yozma nutq tushunchalari hamda ularni o'rganishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar L.R.Sakaeva[1], R.A.Baranova[1] hamda I.A. Bredixina[2] tomonidan tadqiq etilgan. Yozma nutqni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi mashqlar to'plami, turli bosqichlarda yozma axborotning qanda turlari o'zlashtirilishi masalasi G.Nagaraj[3], N.D.Galskova[4], N.I.Gez[4] tomonidan o'rganilgan.

Berilgan maqolani tayyorlash jarayoni to'rt bosqichda amalga oshirilgan bo'lib, ularga: adabiyotlarni to'plash, mos ma'lumotlarni tahlil qilish, qoralama tayyorlash va uni qayta ko'rib chiqish bosqichlari kiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ona tili yapon, xitoy yoki arab tili bo'lgan o'quvchilarga ingliz tili yozuvini o'rgatishda nafaqat yuqorida omillar balki yozish yo'naliishiga ham alohida e'tibor berish talab qilinadi. Buni o'z navbatida dastlabki qiyinchilik deb hisoblasa ham bo'ladi. Ular o'z ona tillarida yuqoridan pastga yoxud o'ngdan chapga qarab yozishga odatlangan bo'lsalar, endi yozuv yo'naliishi chapdan o'ngga tomon harakat qiladi. Bunda nafaqat qo'l harakati yo'naliishi o'zgaradi, balki bu o'zgarishlarni harakat-motor analizatorlari boshqa yo'naliishda yozishga unday boshlaydi. Dastavval, bu ish odat tusiga kirguniga qadar doimiy e'tibor ostida, diqqatni jamlagan holda bajarilsa, vaqt o'tishi bilan bu ko'nikmalar avtomatlashtiriladi. Natijada, o'quvchilar endi hech bir chalg'ishlarsiz, diqqat markazini yozuv yo'naliishiga qaratmasdan turib ham bemalol yoza boshlaydilar.

Yozma nutqni samarali o'rgatishdan avval yozuv texnikasi(grafika, orfografiya, kalligrafiya, punktuatsiya) qoidalari o'rgatilishi talab etiladi. Dastavval, ushbu texnikani rivojlantirish yo'llari va mashqalar tizimi bilan bat afsil tanishib o'tamiz. O'quvchilardan harflardan nusxa ko'chirish, tayoqcha, aylana chizish so'ralganda yozish texnikasiga murojaat etilgan bo'ladi va odatda bu deyarli payqalmaydi ham. Berilgan harflarni ko'chirish o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, sababi bu jarayonda deyarli xatoga yo'l qo'yilmadi.



▪ **Matnlardan jumlalarni ko'chirish** - ushbu texnika qiziqarli o'tkazilishi uchun bir nechta ustunlar va ularga mos so'zlar guruhlari aralash holda beriladi. Bu jarayonda o'quvchilar berilgan so'zlarni muvoffiq keluvchi jadvalga yozishlari so'radi. Bu jadvalni o'quvchilar qaysi bosqichda ekanligiga qarab doimiy ishlatiluvchi kundalik so'zlardan olish yoki yuqori bosqichlarda o'zlashtirilayotgan fan tarmoqlari asosida shakllantirish ham mumkin.

▪ **Rasmlarni/ so'zlarni jumlalar bilan juftlash** - jumlalarga mos keluvchi so'z yoki rasmni ular bilan biriktirish so'raladi.

▪ **Aniqlash va to'g'ri gaplarni ko'chirib yozish** - bir nechta xato va to'g'ri tuzilgan gaplar beriladi va o'quvchilardan ularning xatolarini tuzatish va daftarlari ko'chirib yozish so'raladi. Bu usulning shunisi samaraliki, so'zlarni o'zlashtirilgan grammatika yoki lug'atlarga ko'ra xato ko'rinishda berish mumkin, natijada o'rganilgan darsdan o'quvchilarning ko'rsatkichi qanday ekanligi ayon bo'ladi.

Imlo va punktuatsiya qoidalarini o'rgatishda yoxud mustahkamlashda esa quyidagi vazifalardan foydalanish mumkin:

▪ **To'g'ri yozilgan so'zlarni aniqlash** - so'zlar ro'yxati beriladi va o'quvchilar to'g'ri yozilgan so'zlarni ko'chirishlari talab qilinadi.

▪ **Apostroflar** - ko'pincha o'quvchilar apostrofni qayerda qo'llashni bilishmaydi. Ularga egalik shakllarini berish va parafrazalangan ko'rinishini yozishni so'rash orqali ularda apostroflarni ishlatish bilanb bog'liq muammolarga barham berish mumkin.

▪ **Bo'shliqlar** - gap tarkibidagi barcha so'zlar va so'zlarni tashkil qilgan harflar biri biriga ulab yoziladi va o'quvchilarda ularni to'g'ri shakllantirish so'raladi.

▪ **Aralash harflar** - so'zning harflari aralash holda beriladi va to'g'ri so'zni yasash so'raladi. Bu jarayonni ham o'quvchilarning bilim darajalari va o'rganilgan mavzular asosida tashkillashtirish yanada samarali kechadi.

▪ **Yakunlash** - dialog, gaplarni yakunlash so'raladi. Bunda nafaqat gaplarni yakunlaydilar, balki uni mantiqan avvalgi gaplarga bog'laydilar va mos grammatik va sintaktik formada tuzishlari ham talab etiladi.



G.V.Rogovaga ko'ra ingliz tilining *imlo qoidalarini* o'rganishda besh turdag'i so'z guruhlarini ajrata bilish talab etiladi, ularga:

1-Guruh - fonetik tamoyilga bo'yasinadigan so'zlar kiritiladi hamda harf va tovushlar soni muvoffiq keladi:*bed, sit, mud, not* va boshqalar.

2-Guruh - harf yozilsa ham talaffuz qilinmaydigan so'zlar shu guruhga mansub: *nine, make, rose, mine* so'zlaridagi so'nggi "e" talaffuz qilinmaydi.

3-Guruh - bir tovushni bildiruvchi turli harflar va harf birikmalaridan iborat so'zlar. Masalan, [ə:] tovushi *ir, er, ur* orqali ifodalanadi.

4- Guruh – turli tovushlar bilan o'qiladigan harf birikmalariga ega so'zlar: *ea* — [i:] (*clean*), [e] (*head*), [ei] (*break*); *ai, ay, ei, ey* — barchasi [ei] sifatida o'qiladi, lekin *ai, ei* odatda **so'z boshida yoki o'rtasida**: *main, eight; ay, ey* esa **so'z oxirida**: *may, grey*.

5-Guruh - **tarixiy imlo tamoyiliga** asosan murakkab so'zlar shular jumlasidandir. Bunday so'zlar imlosi ko'p marotaba yozish va ko'rish orqali amalga oshiriladi. Bularga: *one, two, daughter, busy* va boshqalar kiradi.

Yozma nutq barcha ta'lim bosqichlarida ta'lim maqsadi sifatida talqin etiladi. Uning yakuniy talabi sifatida fikrni yozma ravishda bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish, bir so'z bilan aytganda yozma nutqdan muloqot vositasi sifatida foydalana olish ko'nikmasi nazarda tutiladi. Galskova va Gezga ko'ra boshlang'ich bosqichni (I-IV sinflar) tugatgach o'quvchilar bayramlarlar, tug'ilgan kun bilan tabriklay olishi, darslikdagi oddiy rasmlarni tasvirlay olishi, o'z manzili, ismi, sanani to'g'ri yoza olishi, xatni boshlashi va yakunlay olishi, matn asosida savollar tuza olishi kerak bo'ladi. O'rta bosqichga kelib esa (V-VII sinflar) yozma axborotlar hajmi kengayadi va sifat ko'rsatkichi oshishi kerak. Ushbu bosqichda ular chet ellik do'stiga oilasi, hobbisi, maktabi, sevimli fani va hokozalar haqida ma'lumot bera olishi, muloqotdagi sherigidan ham xuddi shu kabi savollarni so'ray olishi, gazeta yoki jurnallarga shu til ma'daniyati qoidalariga rioya qilgan holda xat yoza olishi, o'qilgan matndan kelgusida foydalanish uchun kalit so'zlarni ajratib olish, re'ja tuzish va boshqalar. Katta bosqichga kelib esa (VIII-IX sinflar) yozish borasida



o'quvchilar yuqori darajaga erishishlari kerak bo'ladi. Ular muloqot mavzulari kengligi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini ham ishga solishlari kerak bo'ladi, hamda muhoka qilingan masala mohiyatini mantiqan bayon qila olishlari, og'zaki nutq uchun tezish yoki re'ja tuzishlari, o'qilgan, eshitilgan ma'lumotni yozma qayd qila olishlari kerak. Yo'naltirilgan bosqichda esa (X-XI sinflar) yozma nutqdan kommunikativ kompetensiya darajasi yozuvni ta'limiy, kasbiy, o'z- o'zini o'qitish faoliyatida samarali foydalanish imkonini berishi kerak. O'quvchilar endilikda yanada keng qamrovli, chuqur fakt, voqealarni tasvirlashlari, shaxsiy fikr va munosabatni bildira olishlari, ikkinchi darajali matnlar yaratishlari talab etiladi.

XULOSA

Maqolamizdan shuni xulosa qilishimiz mukinki, ingliz tilida yozuv va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish qator omillarga bog'liq bo'lib, ularga: chet tilining yozuv yo'nalishida erkin harakat qila olish, imlo, xusnixat qoidalaridan yetarlicha habardor bo'lish hamda punktuatsion bo'ysunishlarga amal qilish orqali yozma nutq axborotini yareatish mumkin bo'ladi. Yozma maxsulotning turlari va ta'limning qaysi bosqichida o'rgatilishiga ko'ra turli mashqlar vav vazifalar to'plamini keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Л.Р. Сакаева, А.Р. Баранова. Методика обучения иностранным языкам.— Казань, КФУ, 2016.-С.189.
2. И. А. Бредихина. Методика преподавания иностранных языков : Обучение основным видам речевой деятельности : учеб. пособие; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. — Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2018.-С.104.
3. Geetha Nagaraj. English language teaching: approaches, methods, techniques. Third edition.-India, Orient Blackswan private limited, 2021.-P.242.
4. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений.- М.: Издательский центр «Академия», 2006.-С.336.